

1-ilova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**



Urganch davlat universiteti
rektori B.I. Abdullayev
2024-yil

**Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim olish uchun
Urganch davlat universitetiga yakka tartibda suhbat asosida
o'qishga qabul qilish bo'yicha
BAHOLASH MEZONI**

Urganch - 2024

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Baholash mezoni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi 606-sonli qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish tartibi to'g'risidagi NIZOM talablari asosida universitetning Ilmiy Kengashida muhokama etilib ishlab chiqilgan. Talabgorlar o'qish istagini bildirgan ta'lim yo'nalishlariga Ilmiy Kengash tomonidan tasdiqlangan qarorga asosan kirish imtihonlarisiz, yakka tartibdagi suhbat orqali Urganch davlat universitetining 2-bosqichidan o'qishini davom ettirish uchun qabul qilish tartibini belgilaydi.

2. Quyidagi talablarga javob bergan talabalar yakka tartibdagi suhbat jarayonlarida qatnashish huquqiga ega bo'ladilar:

- Talabgorlar oliy ma'lumotga ega bo'lgan bo'lishi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn ro'yxatdan o'tgan bo'lishi zarur.

2-bob. Suhbatning maqsadi

3. Suhbatning maqsadi oliy ta'limda o'qish istagini bildirgan talabgorlar yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, shaxsiy yutuqlari bilan o'rnak bo'la oladigan, mutaxassisligi bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardorligi va mohiyatini tushuna olishi, ularni o'zining bo'lajak sohasi uchun tadbiq eta olishi hisoblanadi.

3-bob. Suhbat jarayoni tartibi

4. Yakka tartibdagi suhbat uchun savollar Urganch davlat universiteti qabul komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, qabul komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

5. Suhbat jarayonida talabgorlarning har biriga quyidagi mavzular asosida o'zbek tili bo'yicha ikkita va o'zbek adabiyoti bo'yicha ikkitadan jami to'rtta savol beriladi:

6. **O'zbek tili bo'yicha:**

- **Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'zbek xalqi va uning shakllanish tarixi.** O'zbek adabiy tili taraqqiyotini davrlashtirish. Hozirgi o'zbek adabiy tili va uning shevalarga munosabati. Hozirgi o'zbek adabiy tilining o'rganilish tarixi va bosqichlari. **"Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanining maqsadi va vazifalari.** "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanining bo'limlari; **Til, lison va nutq munosabati.** Til sathlari va birliklari. Ilmiy bilish va uning bosqichlari. Falsafiy UMIS va AHVOning lisoniy tizimda voqelanishi. Lisoniy va nutqiy biliklar. Lisoniy paradigma va uning turlari; **O'zbek tili fonetikasi va fonologiyasi tushunchalari.** Emperik soha sifatidagi fonetika nazariy soha sifatidagi fonologiyaning asosi ekanligi. Fonetikaning turlari, ularning maqsad va vazifalari; **Leksik sath, uning xususiyatlari va birligi.** Leksema leksik sath birligi sifatida.

Leksema va soʻzda lison va nutq munosabatining aks etishi. Leksemaning tuzilishi, tub va yasalishi, maʼno koʻlami, genezisi, qoʻllanishi va boshqa belgilariga koʻra turlari, munosabatlari; **Morfema morfemika birligi sifatida.** Morfemaning leksemaga munosabati. Morfemaning xususiyatlari, variantlari, tiplari: derivatsion va grammatik morfemalar. Derivatsion morfemaning turlari; **Oʻzbek tili derivatsiyasi va soʻz yasalishi.** Soʻz yasash qolipi. Soʻz yasash qolipi UMIS, yasama soʻz AHVO sifatida. Soʻz yasash qolipining turlari: unumli va unumsiz, mahsuldor va kammahsul qoliplar. Yasama soʻzlarning xususiyatlari, tiplari va turlari.

- **Tilshunoslik nazariyasi.** Tilshunoslikning tabiati va predmetini belgilash. Tilning jamiyat va tafakkur bilan munosabati natijasida sotsiolingvistika, mentalingvistika, lingvosemiotika, pragmalingvistika singari tutash fanlarning yuzaga kelishi. Nazariy tilshunoslikda tilning tafakkur, psixik faoliyat, ijtimoiy-sotsial institutlar, tabiat hodisalari, boshqa belgili tizimlar bilan yaqinlashtiruvchi konsepsiyalarning sezilarli taʼsirga egaligi. Til va nutq antinomiyasi (qarama-qarshiligi) haqidagi farazning yuzaga kelish sababi; **Til va nutq** qarama-qarshiligi haqidagi eʼtirof etilgan jihatlar: doimiy va oʻzgaruvchan, zamonaviy va tarixiy, logik va psixologik, sotsial va individual, nutq faoliyati va uning natijasi, tizim va jarayon, shakl va mazmun, fan predmeti va obykti. Metatil va uning ommaviy soʻzlashuv vositasi boʻlolmasligi. Tilning strukturasi va funksiyasiga koʻra uch xossaga egaligi. Til-struktura, til-meyor, til-nutqiy faoliyat; **Til va tafakkur.** Til va mantiqiy tafakkur. Til va soʻzlashuvchining ruhiy faoliyati. Til va informatsiya uzatish. Maʼno - lisoniy birliklar mazmuni. Asl va koʻchma maʼnolar. Til modellari, kategoriyalari va birliklari maʼnolarining toʻgʻri va koʻchma, struktur jihatdan motivlangan va motivlanmagan, sistemli va asistemli boʻlishi; **Til va jamiyat.** Til va jamiyat antinomiyasining shartli, tadqiqiy xarakterga egaligi. Nutq hodisasi va nutqning psixofizik mexanizmlari. Nutq faoliyatining ijtimoiy tabiati. Nutq faoliyatining oʻz mohiyati va shartlanganligiga asosan ijtimoiyligi. Nutqiy faoliyat strukturasi yakka soʻzlovchi (adresat va adresant)ni emas, balki bir tilda soʻzlovchini nazarda tutishi. Til qoʻllanishi va taraqqiyotiga ijtimoiy omilning taʼsir darajasi.

Oʻzbek adabiyoti boʻyicha:

- **Adabiyot tarixi. Qadimgi yozma manbalar.** "Avesto" adabiy manba sifatida. Oʻrxun-Enasoy obidalari. "Devonu lugʻat-t-turk"dagi adabiy namunalar. "Qutadgʻu bilig" dostonining obrazlar tizimi. "Hibatu-l-haqoyiq" asarining maʼrifiy asoslari. Xoja Ahmad Yassaviy ijodi va hikmat janri taraqqiyoti; **Temuriylar davri adabiyoti.** Temuriylar davri adabiyotining taraqqiyot omillari. Gadoiy, Atoiy, Lutfiy va Sakkokiy sheʼriyati. Navoiy tarjimai holining adabiy manbalari. "Xazoyinu-l-maoniy"ning tarkibi. Navoiy ijodida lirik janrlar. "Xamsa"chilik anʼanalari va Navoiy "Xamsa"si; **XVI-XIX asrlar adabiyoti.** Xonliklar davri adabiyotining xususiyatlari. Bobur badiiy merosi, "Boburnoma". Ogahiy sheʼriyatining obrazlar tizimi. Muqimiy va Furqat ijodi. Avaz Oʻtar asarlari.

- **Yangi oʻzbek (milliy uygʻonish) adabiyoti.** Jadid tushunchasi, maqsad, vazifalari, oʻrganilishi, muammolari. Milliy matbuot. Milliy teatr, badiiy adabiyot, maʼrifiy- ijtimoiy

2-ilova

she'riyat (A.Avloniy, Hamza, So'fizoda, A.Qodiriy) va publitsistika (Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Hoji Muin); **Yangi o'zbek adabiyoti**. Sho'ro davri adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari. G'.G'ulom, Oybek, H.Olimjon, A.Qahhor, Zulfiya, M.Shayxzoda, Mirtemir kabi shoir va yozuvchilar shu davr adabiyotining namoyandalari sifatida; **Istiqlol davri o'zbek adabiyoti**. Mustaqillik tuyg'usi o'zbek adabiyotida milliy o'zlikni anglashga tashnalik sifatida namoyon bo'lganligi. Istiqlol davri o'zbek adabiyotiga Said Ahmad, O.Yoqubov, P.Qodirov, Sh.Xolmirzayev, E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon, Usmon Azim, Xurshid Davron, Shavkat Rahmon, Erkin A'zam, va boshqa ijodkorlar qo'shgan hissalari xususida. Ular ijodidagi o'ziga xos xususiyatlar va yetakchi tamoyillar.

7. Yakka tartibdagi suhbat bitiruvchining shaxsan ishtirokida o'tkaziladi. Bunda bitiruvchi suhbat komissiyasiga o'zining portfoliosini taqdim etadi.

8. Suhbatda ishtirok etish uchun talabgor suhbat komissiyasi tomonidan oldindan tasdiqlab qo'yilgan biletlardan birini ixtiyoriy ravishda tortadi. Tanlangan biletning raqamini Suhbat komissiyasiga eshittiradi. Suhbat komissiyasi talabgorga suhbatga tayyorlanish uchun 10 daqiqa vaqt beradi. Vaqt yakunlanganidan so'ng talabgor suhbatdan o'tadi.

9. Bitiruvchi tomonidan tayyorlangan portfolioning haqiqiyligiga talabgor javobgar bo'lib, yakka tartibdagi suhbat jarayonida qabul komissiyasi a'zolari tomonidan o'rganib chiqiladi. Portfolioning haqiqiyligini bilish uchun talabgorga qo'shimcha savollar berilishi mumkin.

10. Suhbat jarayonida Suhbat komissiyasining har bir a'zosiga ushbu Mezonning 1-ilovasiga muvofiq namunaviy shakldagi talabgorning suhbat natijalarini qayd etish bayonnomasi (keyingi o'rinlarda — suhbat natijalarini qayd etish bayonnomasi) beriladi.

Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan suhbat natijalarini qayd etish bayonnomasiga har bir bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbat natijasiga ko'ra tegishli ballar belgilab boriladi va imzolanadi.

11. Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha suhbat jarayoni yakunlangach Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan to'ldirilgan suhbat natijalarini qayd etish bayonnomasidagi ballar qo'yiladi hamda komissiya a'zolari tomonidan imzolanib shu asosida ushbu Mezonning 2-ilovasiga muvofiq namunaviy shakldagi bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish qaydnomasi (keyingi o'rinlarda suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish qaydnomasi) to'ldirilib, Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Talabgor tomonidan jami to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ball 100 ballni tashkil etadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish qaydnomasiga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan imzolangan va to'ldirilgan suhbat baynida 60 ball va undan yuqori ball bo'lganida talabgor suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijalariga ko'ra suhbatdan o'tganlar ro'yxati shu kunning o'zida abituriyentlarga o'qib eshittiriladi va universitetning rasmiy sahifasiga joylanadi.

2-ilova

12. Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish qaydnomasiga asosan talabalikka tavsiya etilganlar belgilangan muddatlarda to'lov-kontrakt shartlari bajarilgandan so'ng oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishining 2-bosqichiga o'qishga qabul qilinadi.

13. Suhbat komissiyasi tomonidan talabgorlarni baholash mezonlari quyidagicha taqsimlanadi (3-ilova):

№	Savollar	Ball
1-savol	O'zbek xalqi va uning shakllanish tarixi. O'zbek adabiy tili taraqqiyotini davrlashtirish bo'yicha nazariy bilimlarni bera olishi, mavzu doirasidagi barcha masalalarni qamrab olishi;	10 ball
	berilgan savollar hamda tushunchalarga oid to'liq bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi;	10 ball
	mavzuga doir tushunchalarni to'g'ri ta'riflay olishi, tasdiqlarni isbotsiz keltirib o'tishi.	5 ball
Jami:		25 ball
2- savol	Tilshunoslikning nazariy masalalari bo'yicha nazariy bilimlarga ega bo'lishi hamda tilshunoslik terminlarini to'liq izohlay olishi;	
	berilgan savolning mazmun mohiyatini tushuntirib berishi;	
	Tanlangan sohasi (yo'nalishi) bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar haqidagi fikrlarini bayon eta olishi.	
Jami:		25 ball
3-savol	O'zbek adabiyoti tarixi, mumtoz adabiyot bo'yicha, XVI-XIX asrlar adabiyoti bo'yicha nazariy bilimlarni bera olishi, mavzu doirasidagi barcha masalalarni qamrab olishi;	10 ball
	fakt va misollardan o'rinli foydalanib to'g'ri xulosalar chiqara olishi; talab darajasidagi filologik va ijtimoiy-siyosiy bilimga ega bo'lishi;	10 ball
	nutqi ravon bo'lib, fikrini adabiy tilda ta'sirchan ifodalay bilishi, mavzuni bugungi davr bilan bog'lay olishi	5 ball
Jami:		25 ball

4-savol	Yangi o'zbek (milliy uyg'onish) adabiyoti, XX asr adabiyoti va istiqlol davri adabiyoti haqidagi bilim va ko'nikmalari;	10 ball	2-ilova
	Yozuvchi va shoirlar hayoti vaijodi haqida yetarli ma'lumotlarni taqdim qilishi, badiiy asarlarni tahlil qila olishi;	10 ball	
	Tanlagan kasbini jamiyatga va davlat rivojlanishiga ta'sirini tushunishi.	5 ball	
Jami:		25 ball	

4-bob. Apellyatsiya berish tartibi

14. Suhbatlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

15. Apellyatsiya shikoyatlari suhbat natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida oliy ta'lim muassasasida to'g'ridan-to'g'ri yozma shaklda qabul qilinadi va appelyatsiya komissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo'lgan muddatda videoyozuv asosida ko'rib chiqiladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

16. Mazkur baholash mezonini qo'llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

17. Ushbu baholash mezoni talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi 606-sonli
“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limni
olish tartibi to‘g‘risida” gi Nizomga asosan ikkinchi ta’limda o‘qish uchun hujjat topshirgan
fuqarolarni sirtqi ta’lim shakliga qabul qilish uchun o‘tkazilgan

suhbat

BAYONNOMASI

Talabgorning F.I.O. _____

Ta’lim yo‘nalishi _____

Ish joyi va lavozimi _____

№	Savol	Ball
1.	Mamlakatda tanlagan sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunishi. Mehnat faoliyati olib borayotgan soha bo‘yicha umumiy ma’lumot bera olishi.	
2.	Ikkinchi ta’lim sifatida tanlagan bakalavriat ta’lim yo‘nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko‘rsatish) hamda 2-ta’lim olishdan maqsadi va istiqboldagi reialarini bayon eta olishi.	
3.	Tanlangan sohasi (yo‘nalishi) bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar xaqidagi fikrlarini bayon eta olishi.	
4.	Tanlangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko‘nikmalarning mavjudligi (tanlangan ta’lim yo‘nalishiga mos qo‘shimcha savollar berish orqali baholanadi).	
Umumiy ball		

Komissiya a‘zolari: _____

2-ilova

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi 606-sonli
“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limni
olish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan ikkinchi ta’limda o‘qish uchun hujjat topshirgan
fuqarolarni **60230100 - Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)** yo‘nalishi bo‘yicha sirtqi
ta’lim shakliga o‘qishga qabul qilish uchun
o‘tkazilgan suhbat

QAYDNOMASI

Sana _____

№	ID	FIO	Passport seriyasi va raqami		BALL
1					

Komissiya a’zolari: _____
